www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

JINOYAT VA JAZO

Abdurazzoqov Muhammadamin Xayrullo o‘g‘li
Andijon viloyati yuridik texnikumi Davlat huquqiy foaliyat yo‘nalishi 2-bosqich o‘quvchisi

Ergashov Diyorbek Usmonjon o‘g‘li
Andijon viloyati yuridik texnikumi Davlat huquqiy foaliyat yo‘nalishi 2-bosqich o‘quvchisi

Po‘latova Maftuna Saydulloxon qizi
Andijon viloyati yuridik texnikumi Davlat huquqiy foaliyat yo‘nalishi 2-bosqich o‘quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat va jazoning uzviy bog‘liqligi uning kelib chiqishi va uning yechimiga yondashuvlar haqida izlashlanishlarimizni jamladik.
Kalit so‘zlar: Jinoyat,harakat,qonun,huquq,jazo,xulq,jinoyatchi,jamiat

Преступление и наказание

Абдуразаков Мухаммадамин
Студент 2 курса Андижанского областного юридического технического колледжа, отдел государственно-правовой деятельности

Эргашев Хокимбек...
Студент 2 курса Андижанского областного юридического технического колледжа, отдел государственно-правовой деятельности

Полатова Мафтуна...
Студент 2 курса Андижанского областного юридического технического колледжа, отдел государственно-правовой деятельности

Аннотация: В данной статье мы подытожили наши исследования о происхождении неразрывной связи преступления и наказания и подходах к ее разрешению.
Ключевые слова: преступление, деяние, закон, закон, наказание, поведение, преступник, общество.

CRIME AND PUNISHMEN

Abdurazakov Muhammadamin
2nd-level student of Andijan Region Legal Technical College, Department of State Legal Activity

Ergashev Hokimbek...
2nd-level student of Andijan Region Legal Technical College, Department of State Legal Activity

Polatova Maftuna...
2nd-level student of Andijan Region Legal Technical College, Department of State Legal Activity

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Annotation: In this article, we have summarized our research on the origin of the inextricable link between crime and punishment and approaches to its solution**.**
Keywords: crime, action, law, law, punishment, behavior, criminal, society

Ko‘pchilik jinoyat va jazo jumlasini eshitganda, Dastoyevskiyning o‘sha mashhur ramanini yodga oladi.Ushbu maqola “Jinoyat va jazo” ramani haqida emas. Ammo kezi kelganda tadqiqotimiz davomida ramanga ham murojaat qilish ehtimoli bor.
Avva’lo jinoyat atamasining asl mohiyatini anglab olmag‘imiz darkor .Jinoyat-davlat qonunlaribilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishini talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakat.Jinoyat kodeksi 14-modda 1-qismida jinoyatga shunday ta’rif boriladi: jinoyat qonuni bilan taqiqlangan,aybli ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoli harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Harakat- bu shaxsning ijtimoiy faol (aktiv) xulq-atvori. Bunda shaxsning jamiyat,kishilar orasidagi xulq-atvori (o‘zini tutishi,momalasi ya’ni nutq madaniyati va h.z) nazarda tutiladi.

Harakatsizlik- shaxsning nofaol xulq-atvori bo‘lib,shaxs o‘ziga qonun yoki boshqa qonun osti normative hujjatlari asosida yuklatilgan vazifalarni bajarmaslikda ifodalanadigon passiv xulq-atvori.

Oqni aytganimizda qora so‘zi ham antonim sifatida ongda shakllangandek jinoyat huquqi fani esa jinoyat va jazo to‘g‘risidagi qarashlar va g‘oyalar tizimi bo‘lib, jinoyat qonuni, uning rivojlanish tarixi,jinoiy javobgarlik belgilanishining asoslari,jinoyat uchun jazo tayinlash qoidalari va jinoyat-huquqiy normalarining ijtimoiy-(huquqiy) samaradorligini o‘rganishga qaratilgan mustaqil huquq tormog‘i hisoblanadi.

Jamiyat jinoyatchilarni va jinoyatlarni ulg‘aytiradi.Ayni davirda jinoyat nisbati dunyoda k’opayib bormoqda.Jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablarni subyektiv fikirlarimga tayangan holdamushohoda etadigon bo‘lsak, bosh sabab-kambag‘allik.Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar,axborat yetkazish vositalari ham jinoyatni ko‘payishiga ko‘maklashadi.Har bir jinoyatchi o‘z jinoyati uchun jazo muqarrarligini biladi Jazoga ham tortiladi deylik,u qayta jinoyat sodir etmasligiga kim kafil bo‘la oladi? Hech kim hattoki qonunlar ham to‘xtatuvchi bo‘lolmay qoldi. Jinoyat sodir qilgan shaxs (yoxud jinoyatchi) qilmishiga munosib ozodlikdan mahrum qilish ya’ni qamoq jazosi bilan “mukofotlanadi”. Yillar davomida qamoqda o‘tiradi va yana boshqa kattaroq jinoyatlar sodir qilish uchun chiqadi.

Endi jinoyatchi yetishtirgan jamiyat, jazoni ham o‘zi beradi. Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llaniladigon va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklarda mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 42-moddasi

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligida jinoyat sodir etishda ayibli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi jazo turlari nazarda tutilgan:

-jarima;
-muayyan huquqdan mahrum qilish;
-majburiy jamoat ishlari;
-axloq tuzatish ishlari;
-xizmat bo‘ycha cheklash;
-ozodlikni cheklash;
-intizomiy qismga jo‘natish;
-ozodlikdan mahrum qilish,

Bundan tashqari, quydagi qo‘shimcha jazo turlari ham mavjud:

-muayyan huquqdan mahrum qilish;

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

-harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;

Tadqiqotimiz (albatta, kichik tadqiqotimiz) davomida jinoyat, uni yuzaga keltiruvchi omillar, jazo va uning turlari haqida o‘z qarashlarimizni, o‘qib-o‘rganganlarimizni bayon qilishga harakat qildik. Hulosa o‘rnida, obalzakning ibratli jumlasini keltirib o‘tishni joiz toptik: “Eng pokiza hakam o‘zimizning vijdonimiz. Agar vijdonimizni yutmagan bo‘lsak, albatta!’’

Foydalangan adabiyotlar:

1 Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. –t:TDYU nashriyoti, 2021-304 b